1. Takbiri tahrimada erkaklar qo` llarini quloq yumshog` iga-cha, ayollar yelka to` g` risigacha ko` tarmoq` i; 2. Takbir uchun qo` l ko` targanda barmoqlarni yoyib turmoq; 3. Takbiri tahrimadan so` ng qo` llarni bog` lab, kindik ostiga, ayollar ko` kraklariga qo` yib turmoq` i; 4. Qo` lni bog` lagandan so` ng "Sano" o` qimoq; 5. "Sano" dan so` ng ta` avvuz (A` uzu billahi minash shaytonir rojim)ni aytmoq; 6. Har rak` atda surai "Fotiha" dan oldin tasmiya (Bismillahir rohmanir rohim)ni aytmoq; 7. Namozda surai "Fotiha" ni o` qigan kishi ham ichida "Omin" demoqligi; 8. Ruku` da barmoq oralig` ini ochib, tizzaga tayanib, tizzalarni to` g` ri tutib (ayollar tizzalarini egibroq turadilar), boshini beli ila barobar qilib turmoq; 9. Ruku` da uch marta "Ruku` tasbehi", ya` ni "Subhana robbiyal azim" ni o` qimoq; 10. Sajdada qo` l kaftlarini, oyoqlari va tizza hamda oyoq barmoqlarini, burunni va peshanani yerga tek-kizib, bilaklarini yerga va qorniga tekkizmasdan, qorinni songa tek-kizmasdan turmoq (ayollar aksincha siqilibroq turadilar); 11. Sajdada uch marta "Sajda tasbehi", ya` ni "Subhana robbiyal a` la" ni o` qimoq; 12. Ruku` ga borishda, sajdaga borishda, sajdadan bosh ko` tarishda, qiyomga turishda va vitr namozida "Qunut duosi" ni

boshlashdan oldin takbir-"Allohu Akbar!" aytmoq; 13. Ruku'dan turishda imom "Tasmi'" aytmog'i, muqtadiy "Tahmid" aytmog'i, yolg'iz o'quvchi bo'lsa, ikkalovini ham aytmog'i (tasmi' - "samiyallohu liman hamidah", tahmid - "Robbana lakal hamd"); 14. Qa'dada chap oyoqning ustiga o'tirib, o'ng oyoqni tutib, oyoq barmoqlarini yerga yotqizib, qo'llarini sonlari ustiga qo'yib, barmoq uchlari tizza barobar qo'yiladi. Ayollar esa, ikki oyoqlarini ham o'ng tomonlariga chiqarib chap dumbalari ustiga o'tiradilar; 15. "Tashahhud"dan so'ng "Salavot" o'qimoq; 16. "Salavot"dan so'ng "duo" o'qimoq; 17. Salomni o'ng va chap tomonga qarab bermoq. 18. Imom takbirlarni, tasmi'ni hamda salomni ovoz chiqarib, boshqa zikrlarni esa yashirin aytadi. Muqtadiy yashirin aytadi, yolg'iz o'quvchi shom, xufton, bomdod farzida ixtiyorli. 19. Muqtadiy hamma amallarni imom bilan birga qiladi. Imomdan oldin yoki keyin qilmoq makruhdir. 20. Farz namozlarini jamoat bo'lib o'qimoq. 21. Farz namozlar uchun azon aytmoq. 22. Farzni boshlashdan oldin takbir-iqomat aytmoq. 23. Hayit namozlarining takbirlari orasida qo'llarini yoniga tushirib turmoq. 24. Muqtadiy bitta bo'lsa, imomning o'ng tomonida turmoq, ko'p kishi bo'lsa imomning orqasidan saf bo'lib turmoq.

### **NAMOZ MUSTAHABLARI:**

1. Namozda niyatdan so'ng takbir aytib, qo'l ko'targanda barmoqlar orasini ochiq tutib, bosh barmoqlarning yuz tomonini quloq yumshoqlariga tekkizmoq (ayollar yelkalari to'g'risigacha ko'taradilar); 2. Qiyomda, ya'ni tik turganda 2 oyoq orasini 10-12 va 10-14 sm chamasida ochib turmoq. Uzrli kishilar kengroq ochib turishlari mumkin; 3. Qiyomda qo'l bog'laganda chap qo'lning kaft bo'g'inini o'ng qo'lning bosh barmog'i va chap jimjalog'i bilan bog'lab ushlab, uchta o'rta barmoqlarni bilak ustiga uzunasiga yotqizib qo'ymoq; 4. Muqim (shahrida yashaydigan) kishi surai "Fotiha" dan so'ng bomdod va peshin namozida uzunroq suralarni, asr va xufton namozlarida o'rtacha uzunlikdagi suralarni, shom namozida esa qisqa suralarni o'qish. ("Hujurot" surasidan "Buruji" surasigacha uzun suralar, undan "Lam yakun" surasigacha o'rtancha, undan keyingilari oxirigacha qisqa suralar hisoblanadi); 5. Avvalgi rak'atlarda uzunroq, keyingi rak'atlarda qisqaroq suralarni o'qish; 6. Sajdada barmoq oralari zich bo'lib, bosh barmoqlar quloq yonida bo'lishi; 7. Sajdaga borganda avval tizzani, so'ngra qo'lni, keyin burunni, oxirida peshonani yerga tekkizish; 8. Sajdadan boshni ko'targanda buning aksicha; 9. Sajdada boshni ikki qo'l oralig'iga qo'ymoq; 10. Sajdada qo'l va oyoq barmoqlarining

uchlari qiblaga qarab turmog`i, oyoq barmoqlari yerga tegib, tovon tik turishi; 11. Salomdan avval yuzning ter va changini artmaslik; 12. Salomda yuzni o`ng va chap yelkalariga qarab burmoq; 13. Ruku` va sajdalarda tasbehlarni uchdan oshirib 5,7,9 marotaba aytmoq; 14. Uch va to`rt rak`atlik farz namozlarning oldingi ikki rak`atlaridan keyin faqat surai "Fotiha"ni o`qimoq; 15. Qiyomda sajdagohga, ruku`da oyoq barmoqlari orasiga, sajdada yerga, qa`dada chap ko`kragiga qarab turmoq; 16. Namozda tavoze` va shikastalik ila turmoq. (Buni "xushu`, xuzu`" deyiladi); 17. Namozga keyin kelgan kishi qolgan rak`atlarni o`qimoq uchun imomning ikki tarafga salom bermog`ini kutmoq`i; 18. Namozda u yoq-bu yoqqa qaramaslik; 19. Namozda yo`tal va esnov kelib qolsa iloji boricha qaytarmoq; 20. Ixtiyorsiz esnaganda qo`l orqasi ila og`izni bekitmoq, payg`ambarlar esnamaganliklarini esga keltirish; 21. Salom berganda orqadagi kishini ko`rar darajada yuzni burish; 22. "Assalomu alaykum va rahmatullohi va barakatuhu", deb salom bermoq.

### **NAMOZDAGI HAROM QILINGAN AMALLAR:**

1. "Bismillahir rohmanir rohim" va "Omin"ni ovoz chiqarib aytmoq.
2. O`ng va chap taraflariga yuz o`girib qaramoq.
3. Osmonga qaramoq.
4. Farz namozlarida uzrsiz bir narsaga suyanmoq.
5. Qo`l ko`tarish sunnat bo`lmagan takbirlarda qo`l ko`tarmoq.
6. Sajdada qo`l va oyoq barmoqlarini yerdan ko`tarmoq.
7. Qa`dada ikki oyoqni tik qilib, tovon ustiga o`tirmoq.
8. Badanni yoki kiyimni uch martadan kam o`ynamoq (uch marta o`ynasa, namoz buzilur).
9. Salomni faqat bir tarafga bermoq.
10. Vitr namozidan boshqa namozda "Qunut duosi"ni o`qimoq.
11. Takbir, sano, tasbeh va tashahhudlarni sunnat miqdoridan oshirmoq.
12. Namoz vojiblaridan birini qasddan tark qilmoq.

### **NAMOZNING MAKRUH AMALLARI:**

1. Takbirlarni ikki martadan aytmoq.
2. Oyat va tasbehlarni qo`lda sanamoq.
3. Namozda sunnat bo`lgan amallardan birini tark qilmoq.
4. Qiyomga turganda qo`l bilan yerga tayanib turmoq.

5. Namozda takaburlarga o`xshab turmoq.
6. Uzrsiz yo`talmoq.
7. Burun qoqmoq.
8. Eshitilmaydigan tovush ila "oh" demoq, agar eshitiladigan qilib "oh" desa, namoz buziladi.
9. Sajdada qo`lni tizzadan ilgari yerga qo`ymoq.
10. Ruku`da boshni yuqori yoki quyi qilmoq.
11. Tish orasidan chiqqan no`xatdan kichikroq bir narsani yutmoq (no`xotdek bo`lsa, namoz buziladi).
12. Qiroatni ruku`da tamom qilmoq.
13. Har bir zikrni o`z o`rnida tamom qilmasdan ikkinchi o`rinda tamom qilmoq.
14. Ko`zni yumib turmoq.
15. Qa`daga qo`llari ila yerga tayanib o`tirmoq.
16. Sajdada mumkin bo`lgan holda sajda o`rnidagi tosh va tuproqlarni supurmoq (Agar ilojsiz bo`lsa, bir-ikki marta supursa, mumkin).
17. Yuzdagi chang va tuproqlarni artmoq.
18. Kiyimlarni qo`llari bilan yig`ishtirmoq.
19. Kerishmoq.
20. Barmoqlarni qarsillatmoq.
21. Og`irlikni bir oyoqqa solib dam olmoq.
22. Ruku`dan boshqa o`rinda barmoq oralarini keng ochiq tutmoq.
23. Qiroatni shoshib o`qimoq.
24. Uzrsiz bir-ikki qadam yurmoq (uch-to`rt qadam yurish namozni buzadi).
25. O`ng va chap tomonga og`ib turmoq.
26. Bir-ikki marta harakatda bit va burgalarni o`ldirmoq yoki quvmoq (uch marta bo`lsa, namoz buziladi).
27. Tuflamoq.
28. Kiyimlarni bir qo`lda bo`lsa ham kiymoq yoki yechmoq.
29. Hidli bir narsani hidlamoq.
30. Bir narsa ila bir-ikki marta yelpinmoq (uch martada buziladi).
31. Bir namozga doim muayyan bir surani tayin qilib o`qimoq.
32. Bir rak`atda ikki sura o`qigan kishi orada bir oyatdan boshqa oyatga o`tmoq.



33. Orada bir necha oyatlarni tashlab, bir oyatdan boshqa oyatga o'tmoq.

34. Birinchi rak'atga keyingi surani, ikkinchi rak'atga avvalgi surani o'qimoq.

35. Uzrsiz bola ko'tarmoq.

36. Farz namozlarining keyingi rak'atini avvalgi rak'atidan uzaytirib o'qimoq.

37. Rahmat va azob oyatlarining ma'nolarini o'ylab, to'xtab qolmoq.

38. Salla va telpak kabi narsalarning old qismiga sajda qilmoq (ya'ni peshonani yerga tekkizmaslik).

39. Sajdada erlar qorin va tirsaklarini yerga va sonlariga tekkizmoq'i (ayollarga sunnat).

40. Erkalarning oz harakat ila bo'lsa-da, oyoq kiyimlarini kiymoq'i yoki yechmoq'i.

41. Imom namozni qavmga malol keladigan darajada cho'zib o'qimog'i.

42. Qavmning betoqatliligi ila imom shoshib o'qimog'i.

43. Imom uch oyat qadar sura o'qigandan so'ng yanglishsa, qavmning aytib bermog'ini kutib turmoq.

44. Kunduz qiroatni ovoz chiqarib o'qimoq.

45. Qiroati yashirin o'qiladigan namozlarda imom sajda oyatini o'qimog'i.

46. Farz namozlarda xursandlikdan yoki xafalikdan bir oyatni uzrsiz ikki marotaba o'qimoq.

47. Farz namozining bir rak'atida bir surani ikki marotaba o'qimoq.

48. Erkaklarning yenglarini tirsakdan yuqori shimarib o'qimoq'i (ayollarga taqiqlanadi).

49. O'z ixtiyori ila esnamoq.

50. Bir narsani ushlab turmoq.

51. Bir yerni bir-ikki marotaba qashimoq (uch marta qashisa, namoz buzilur).

52. Bosh yalang namoz o'qimoq. Tavoze' uchun bo'lsa, zarari yo'q.

53. Atrofda ko'zga ko'rinadigan hayvon yoki odam suratlari bo'lmoq'i.

54. Oynaga, qabrga yoki birovning yuziga qarab o'qimoq.

55. Oldingi safda o'rin bo'lgan holda keyingi safda turib namoz o'qimoq.

56. Tahorati qistagan holda namoz o'qimoq.

57. Ovozsiz kulmoq. Ovozli bo'lsa, namoz buzilib, tahorat ham sinadi.



58. Dunyo ishi uchun ovozsiz yig`lamoq (Dunyo ishi uchun ovoz chiqarib kulmoq va yig`lamoq namozni buzadi).

59. Ishora ila bir so`z aytmoq yoki javob bermoq.

60. Ko`nglida biror narsani hisoblamoq.

### **NAMOZNI BUZUVCHI (MUFSID) AMALLAR:**

1. Namozda namozdan tashqari so`zlarni gapirmoq.

2. Bilib turib, namozda birovga salom bermoq.

3. Bilib turib, salomga alik olmoq.

4. Ovoz chiqarib kulmoq. Bunda tahorat ham sinadi.

5. Dunyo ishi uchun ovoz chiqarib yig`lamoq.

6. Uzrsiz tomoq qirmoq.

7. Aksa urib "Alhamdulillah" ("Allohga shukur") degan kishiga "Yarhamukalloh" ("Alloh rahm qilsin"), deb javob bermoq (namozdan tashqari vaqtda shunday deyish kerak, albatta).

8. Namoz zikrlari bilan bo`lsa ham birovning so`ziga javob bermoq (M: Birov "qalaysiz?" desa, "Alhamdulillah" (Allohga shukur, yaxshiman) demoq yoki "Yer qimirladi", desa, "Subhanalloh", deb javob qilmoq).

9. Sura, zikrlarni xatga qarab o`qimoq.

10. Nopok joyga (narsaga) sajda qilmoq.

11. Odamlardan talab qilish mazmunida duo qilish.

12. No`xatdek keladigan narsani yemoq va ichmoq.

13. O`z ixtiyori bilan tahoratni buzmoq.

14. Avrat joylarining to`rtidan bir qismi ochilmog`i.

15. Namozdan tashqari ishlar bilan shug`ullanmoq.

16. Muqtadiy imomdan oldin o`rnidan turmog`i.

17. Namozda farz bo`lgan amallarning birini uzrsiz tark qilmoq.

18. Jamoat namozini er-xotin bir safda turib o`qimoq`i.

19. Mast holda namoz o`qish.

20. Namozda "Qur`on" ma`nosini buzib o`qish.

21. Namozda libos kiyish yoki almashtirish.

22. Oftob chiqayotganda bomdod o`qish.

24. Kun botayotganda namoz o`qish.

23. Quyosh tik (qiyom) holatga kelganda namoz o`qish.

### **NAMOZNING MUBOHLARI:**

1. Yuz o`girmasdan ko`z qiri bilan atrofga qaramoq.

2. Sajda qiladigan joyni qo`l bilan bir-ikki marta supurmoq.

3. Ilon va chayonga o`xshash chaqadigan hayvonlarni o`ldirmoq.
4. Qiroatga mone` bo`lmaydigan kichkina tangadek narsani og`izda olib turmoq.
5. Qo`lni bog`lash va tizzaga tayanishga mone` bo`lmaydigan narsani qo`lda olib turmoq.
6. Bir rak`atda bir sura oxirini, ikkinchi rak`atda ikkinchi sura oxirini o`qimoq.
7. Nafl namozlarda bir rak`atda bir surani takror qilmoq.
8. Nafl namozlarda uzrsiz bir narsaga suyanib turmoq.
9. Imom yanglishganda orqasidagi qavmlarga "tursa, tura-man, o`tirsa, o`tiraman", deb ko`z qiri ila qaramoq.
10. Imom yanglishganda muqtadiylar takbir yoki tasbeh orqali imomni ogohlantirmog`i.
11. Ruku`da badanga yopishmasligi uchun kiyimlarni silkitmoq.
12. Namozda ixtiyorsiz tahorati buzilgan kishining hech so`zlamasdan tahorat qilib, kelgan joyidan boshlab, qolgan namozini o`qimoq`i.
13. Namoz o`quvchining oldidan o`tmoq makruhdur. Shuning uchun namoz o`quvchi oldiga biror kaltakni suqib qo`yishi sunnatdir. Bu imom oldiga qo`yilsa, hamma iqtido qiluvchilarga ham kifoyadir. Mabodo, bilmay o`tib qolsa, tasbeh aytib, namozda ekanligini bildirib qo`yish lozim.

### NAMOZ ZIKRLARI:

1. Sano: "Subhanakallohmma va bihamdika va taborakas-muka, va taala jadduka, vala ilaha g`oyruk" (niyatdan so`ng o`qiladi).
2. Taavvuz: "A`uzu billahi minash shaytonir rojiym".
3. Tasmiya: "Bismillahir rohmanir rohiym".
4. Takbir: "Allohu Akbar".
5. Ruku` tasbehi: "Subhana robbiyal azim".
6. Tasmi`: "Samiallohu liman hamidah"
7. Tahmid: "Robbana lakal hamd".
8. Sajda tasbehi: "Subhana robbiyal a`la".
9. Tashahhud: "Attahiyyatulillahil vassolavatu vattoyyibat. Assalomu alayka ayyuhan nabiiyu va rohmatullohi va barokatuh. Assalamu alayna va `ala ibadillahis solihiyin. Ashhadu alla ilaha illallohu va ashhadu anna Muhammadan abduhu va rosuluh"
10. Ikki salavat: "1. Allohmma solli `ala Muhammadiv va `ala ali Muhammad. Kama sollayta `ala Ibrohima va `ala ali

Ibrohim. Innaka hamiydum majiyd. 2. Allohmma borik `ala Muhammadiv va `ala ali Muhammad. Kama barokta `ala Ibrohima va `ala ali Ibrohiym. Innaka hamiydum majiyd".

11. Duo: "Robbana atina fiddunya hasanata va fil axiroti hasanata va qina azaban nar" (salavotdan keyin o`qiladi). Boshqa duo o`qish ham mumkin.

12. Salom: "Assalomu alaykum va rohmatalloh".

13. Salomdan so`ng o`qiladigan duo: "Allohmma antas salam va minkas salam, tabarokta yo zaljalali val ikrom".

14. Qunut duosi: "Allohmma inna nasta`inuka va nastag`firuk. Va nu`minu bika va natavakkalu a`layka va nusniy `alaykal xoyr. Nashkuruka va la nakfuruk. Va naxlau va natruku may yafjuruk. Allohmma iyyaka na`budu va laka nusolli va nasjudu va ilayka nas`a va nahfidu narju rohmataka va naxsha a`zabaka. Inna `azabaka bil kuffari mulhiq".

15. Bir joyga borganda o`qiladigan duo: "Allohmma anzilniy munzalan muborakan va anta xoyrul munziliyn".

**ESLATMA.** Tilovati Qur`onni, namozni va namozning birinchi rak`atidagi surai "Fotiha"ni o`qishdan oldin "Taavvuz" va "Tasmiya" bilan boshlash lozim. Namozning qolgan rak`atlaridagi surai "Fotiha"larni faqat "Tasmiya" bilan o`qiladi.

## **ERKAK VA AYOLLAR NAMOZINING FARQLARI**

Erkak va ayollar namozi bir-biridan sakkiz o`rinda farq qiladi.

1) Namozga niyat qilib bo`lgach, oxirida "Allohu Akbar" deb takbir aytganda, erkaklar qo`llarini ko`tarib, bosh barmoqlari uchini quloqlarining yumshoq joyiga tekkizadi, ayollar esa qo`llarini yelkalari baravarigacha ko`taradilar.

2) Erkaklar qo`llarini ko`targanda ochiq holda, ayollar qo`llarini ko`targanida qo`llari yeng ichida bo`lishi lozim.

3) "Allohu Akbar!" - deb takbir aytib bo`lgach, erkaklar o`ng qo`lini chap qo`lining ustiga qo`yib bosh barmog`i va jimjalog`i bilan chap qo`lining bo`g`imi ustidan bog`lab 3 o`rta barmoqlarini bir-biriga yaqin holatda uzunasiga qo`yib kindikdan pastda ushlab turadi. Ayollar esa qo`llarini bog`lab ko`kraklari ustida ushlab turadilar.

4) Ruku`da erkaklar tizzalarini bukmasdan tik holatda tursalar, ayollar esa tizzalarini ozroq bukib turadilar.

5) Ruku`da erkaklar tizzalariga tayanganda barmoqlari orasi biroz ochiq holatda bo`ladilar, ayollar esa barmoqlari orasini ochmasdan tizza to`pig`ini ushlab turadilar.

6) Sajda paytida erkaklar bilaklarini yerdan va qovurg`alaridan, qorinlarini sonlaridan va yerdan uzoqda tutadilar, ayollar esa aksincha - bilaklarini va yerga qorinlarini sonlariga yopishtirib, yig`ilibroq sajda qiladilar.

7) Qa`dada erkaklar o`ng oyoq barmoqlarini qiblaga qarab, tovonlarini tik holatda bosib, chap oyoqlarini yotqizib, ustiga o`tiradilar, ayollar esa ikki oyoqlarini o`ng tarafga qaratib, chap dumbalari ustiga o`tiradilar.

8) Erkaklar farz namozlarini azon va iqomat aytib, jamoat bo`lib o`qiydilar, ayollarga esa azon va iqomat shart emas. Ayollarga namozni jamoat bo`lib o`qish makruhdir.

### **ZAIF VA NOGIRON KISHILAR NAMOZI**

Kishi xastaligi yoki zaifligi sababli qiyomga turolmasa, o`tirib o`qishi mumkin. O`tirgan holatda ruku` qiladi, sajdada boshini yerga tekkizib o`qiydi. Agar ruku` va sajdaga imkoni bo`lmasa, o`tirib imkoni boricha ruku` va sajdaga egilib, ishora bilan o`qisa ham bo`ladi. Agar o`tirishga ham iloji bo`lmasa, oyoqlarini qibla tarafga uzatib, chalqancha yotib, boshi bilan ishora qilib o`qiydi. Agar bunga ham iloji bo`lmasa, ul kishi uzrlidir. Tuzalib ketgach, qazosini o`qishga niyat qilib, vaqtincha o`qimasligi mumkin.

Namozni uzrsiz o`tirib o`qish mumkin emas. Qayiqda, poezdda yoki kemada ketayotganlar o`qisa bo`ladi.

Qariligi yoki soqovligi tufayli Qur`onni yaxshi talaffuz qila olmaydigan kishilar bo`lsa, imomga iqtido qilishlari kerak, agar yakka o`zlari bo`lsa, bilgan sura va oyatlarini o`qisa bo`ladi.

Biror sabab bilan hushidan ketib qolgan kishi 24 soat ichida hushiga kelsa, qaytib o`qiydi, agar hushsizlik holati 24 soatdan oshsa, u holda qazosini o`qimaydi, navbatdagi namozlarini o`qiyveradi.

### **QAZO NAMOZI**

Agar biror kishi uzrlil sabab bilan namozini o`z vaqtida o`qiy olmasa, keyin qazosini o`qiydi. Peshin namozini qazo qilib qo`ygan odam qazosini o`qiyman deguncha, asr namozining vaqti kirib qolsa, bunday holatda avval qazo bo`lgan namozini o`qiydi, so`ngra vaqti kirgan namozini o`qiydi. Bu tartib farz hisoblanadi. Agar umrida besh vaqt namozdan ortiq qazo qilgan bo`lsa, unga tartib shart emas, xohlagan tartibda o`qishi mumkin.

Agar umrida namozni qazo qilmagan kishi esidan chiqarib, vaqti kirgan namozni avval o`qib qo`ysa, lekin tamom bo`lmasdan qazo bo`lgan namozi esiga kelib qolsa, namozi buziladi,

qayta o`qiydi. Agar vaqti bo`lgan namozni o`qib tugatgandan keyin esiga tushsa, o`qigan namozi hisobga o`tadi. Agar vaqt ziq bo`lib qolsa, avval vaqti kirgan namoz o`qiladi, so`ngra qazo namoz o`qiladi. Uzrsiz qazo qilish durust emas.

Qazo bo`lgan namozning faqat farzi o`qiladi, sunnati o`qilmaydi, lekin bomdod namozining sunnatini peshin kirmasdan oldin bo`lsa, o`qiladi, chunki bomdod namozining sunnati, sunnati muakkadadir, qazosi o`qiladi. Vitri vojib namozi ham boshqa namozlar singari qazosi o`qiladi.

Juma namozi va hayit namozlari qazo qilib o`qilmaydi. Juma namozini o`qiy olmay qolgan kishi peshin namozini o`qiydi.

Bomdod, shom va xufton namozlarini bir jamoa odam birga qazo qilsa, avvalgi ikki rak`atini ovoz chiqarib o`qish imomga vojibdir, yolg`iz o`zi qazo namoz o`qisa, ichida o`qish vojibdir.

## SAJDAI SAHV

Sajdai sahv deganda namoz o`qiyotib, vojib amallardan birortasini unutib tark etsa, o`sha xatoni tuzatish uchun qo`shimcha ravishda sajda qilinadi. Sajda ikki marta qilinadi. Bu namozning oxirida qilinadi. Sajdai sahv qilish uchun oxirgi qa`dada ikki salavot o`qilmasdan o`ng tomonga bir marta salom berib, sajdai sahv qiladi. Keyin sajdai sahv qilib, qa`daga o`tirib "Atahiyot"ni ikki salavot bilan o`qiydi.

Imom xatoga yo`l qo`ysa, ergashuvchilar ham imom bilan birga sajdai sahv qiladi. Agar namozda sunnat va mustahab amallarini esdan chiqarsa, sahv vojib bo`lmaydi.

Namozda ikki marta xato qilsa ham bir marta sajdai sahv qilinadi. Sajdai sahvda ham har sajdaga borganda uch marta-dan "Subhana robbiyal a`la" tasbehi aytiladi.

Sajdai sahv ushbu 14 holatda qilinadi:

1. Farz namozining avvalgi birinchi rak`atida "Fotiha" surasini o`qimasdan boshqa bir sura o`qisa.

2. Avvalgi 2 rak`atda "Fotiha" surasidan so`ng biror sura yoki biror uzun oyat o`qilmasa.

3. 3 rak`atlik yoki 4 rak`atlik namozlarda avvalgi qa`dada o`tirmasa.

4. Biror qa`dada "Tashahhud" o`qimasa.

5. Avvalgi qa`dada "Tashahhud" dan so`ng salavotga o`tib ketsa.

6. Avvalgi qa`dada salom berib qo`ysa.



7. Ovoz chiqarib o`qiydigan namozlarni ichida o`qib qo`ysa.
8. Ichida o`qiladigan namozlarni ovoz chiqarib o`qisa.
9. Vitri namozida "Qunut" duosi o`qilmasa.
10. Qiroatdan ilgari ruku` qilsa.
11. Ikki marta ruku` qilsa.
12. Uch marta sajda qilinsa.
13. Oxirgi qa`dadan qiyomga turib ketsa.
14. "Tashahhud"dan so`ng qaysi rak`at, nechanchi rak`at ekanini o`ylab qolib, salom berish cho`zib yuborilsa.

## **MUSOFIR NAMOZI**

Musofir deb o`rtacha uch kunlik masofadagi bir joyga borishni niyat qilib, yo`lga chiqqan kishiga aytiladi.

Musofirlik o`zi yashayotgan qishloq yoki shaharning chekasidan yana o`sha joyga qaytib kelgancha deb belgilangan. Musofir bo`lish uchun eng kami 90 km. masofa bo`lishi kerak. Musofir biror shaharda to`xtab, shu joyda 15 kun yoki undan ko`proq turishni niyat qilsa, muqim hukmida bo`lib qoladi.

Musofir to`rt rak`atli peshin, asr va xufton namozlarini qisqa (qasr) qilib, ikki rak`atdan qilib o`qiydi. Uch rak`atli shom va vitri vojib namozlarini qasr qilib o`qimaydi.

Muqim kishilar etik va maxsiga bir kecha-kunduz, musofir kishilar uch kecha-kunduzgacha masx tortishi mumkin.

Agar musofir safarda qiynaladigan bo`lsa, namoz sunnatlarini tark etib, ramazon oyi ro`zasini qazoga qoldirishi mumkin.

Agar musofir imom bo`lsa, ikki rak`at o`qib salom bergach, ergashuvchi muqim kishilar turib qolgan ikki rak`atini o`qiydi. Musofir muqim imomga ergashishi mumkin, lekin imom bilan birga to`rt rak`at o`qiydi. Agar o`zicha to`rt rak`at o`qisa, gunohkor bo`ladi. Safarda qazo qilingan namozi uyiga kelgach, qasr qilib o`qiladi.

## **JAMOAT NAMOZLARI**

1. Jamoat namozlari deganda ikki va undan ortiq kishilarning imom boshchiligida birlashib o`qigan namozlari nazarda tutiladi.
2. Bundan tashqari haftada bir marta o`qish farz bo`lgan juma namozi.
3. Farzi kifoya bo`lgan janoza namozi.
4. Vojib namozlar: a) fitr (ramazon) hayiti namozi; b) qurbon hayiti namozi.



5. Sunnat namozlaridan faqat ramazon oyida o`qiladigan 30 kun taroveh namozi jamoat bo`lib o`qiladi.

Jamoat namoziga o`tadigan imom namozxonlarning ichida boshqalardan har tomonlama, xususan, ilmida, qiroatda, taqvoda, xulqda, yoshda afzal bo`lishi kerak. Agar bu jihatlarda barobar bo`lsa, unda qur`a tashlanadi, kim ko`proq ovoz olsa, shu kishi imom bo`ladi.

Jamoat namozida imom jamoat safidan bir saf oldinda turi-shi lozim. Muqtadiylar, ya`ni imomga iqtido qiluvchilar safni to`g`rilab bir-biriga jips turishlari kerak. Muqtadiylar namozning ruknlarini, masalan, niyat qilib bo`lgach, barmoqlarni quloqqa tekkizishda, ruku`ga borishda, ruku`dan bosh ko`tarishda, sajdaga borishda, sajdadan bosh ko`targanda, o`ng va chap tomonga salom berganda imomdan ilgari bajarimasdan, balki imom bilan birga yoki imomdan sal keyin bajarishi lozim.

Muqtadiylar qiyomda niyatga qo`shimcha ravishda ushbu imomga iqtido qildim deydilar, so`ng (imom bilan birga yoki imomdan biroz keyinroq) "Allohu Akbar!" - deb takbir aytib, bosh barmoqlarini quloq yumshoqlariga tekkizib, so`ngra qo`llarini bog`labo sano aytadilar, qolganini imom aytadi. Imom "Fotiha" surasini o`qib bo`lgach, muqtadiylar ichlarida "Omin" deydilar.

Ruku`dan bosh ko`tarayotib, imom "Samiallohu liman hamidah"ni aytadi, muqtadiylar esa "Robbana lakal hamd"ni, ruku` tasbehini, sajda tasbehi va qa`dada "Attahiyot"ni ichlarida aytib salom beradilar. Imomdan tashqari bir kishi bo`lsa, imomning o`ng tomonida bir tovon orqada turadi. Agar imomdan tashqari ikki, uch va undan ortiq kishi bo`lsa, imom orqasida oralarida bo`sh joy qoldirmasdan saf bo`lib turadilar.

## AZON

Har bir farz namozi va juma namozining vaqti kirgach, azon aytish sunnatdir, bomdod namozining vaqti bo`lgach aytilgan azon esa, sunnati muakkadadir.

Namozning farzini o`qishdan oldin takbir (iqomat) aytiladi. Iqomat ham azonga o`xshash bo`ladi, farqi - azon cho`zib aytiladi, iqomat esa tez aytiladi. Azon aytuvchi (muazzin) oqil, solih, taqvodor, to`g`ri ayta oladigan, haybatli, salobatli, tahoratli kishi bo`lishi avlo. Mast, junub, devona, ayol, balog`at yoshiga yetmagan va fosiq kishilarning azon va iqomat aytishi makruhdir. Ular aytgan azon qayta aytiladi. Ammo iqomatlari qayta aytilmaydi.

Takbirni azon aytgan kishi aytishi lozim. Agar azon aytuvchi yo`q bo`lsa, yoki azon aytuvchi boshqa kishining takbir aytishiga rozi bo`lsa, zarari yo`q. Agar ruxsatsiz boshqa kishi takbir aytib qo`ysa, bu aytuvchiga malol kelsa, makruh bo`lib qoladi.

Mahalla masjidida aytilgan azon eshitilsa, uyda o`quvchiga azon aytish lozim emas. Agar eshitilmasa, uyda aytgan afzaldir.

Yuqorida aytganimizdek azon bilan takbir bir-biriga o`xshashdir.

1. Azon aytganda muazzin ikki shahodat (ishorat) barmoqlarini quloqlarining ichiga kiritib, bosh barmoqlarini quloqlarining yumshoq joyiga tegizib, yuzini qiblagga (Ka`baga) qaratib, to`rt marta "Allohu Akbar!" deydi.

2. Yuzni o`ng yelkasiga burib, ikki marta "Hayya `alas-solah" deydi.

3. Yuzini chap yelkaga burib, ikki marta "Hayya `alal falah" deydi.

4. Bomdod namozi uchun aytiladigan azon, boshqa namozlarga aytiladigan azondan farqi - "Hayya `alal falah" dan keyin ikki marta yuzni Ka`baga to`g`ri qaratib, "Assolatu xoyrum minnan navm", ya`ni "Namoz uyqudan afzal", deydi.

5. Yuzini Ka`baga qaratib ikki marta "Allohu Akbar" deydi.

6) Yuzini Ka`baga qaratib bir marta "La ilaha illalloh" deb azonni tugatadi. So`ngra azon duosini o`qiydi.

**Eslatma:** 1) azonni eshitgan kishi yurish, ish qilish, so`zlashishdan va har xil harakat qilishdan to`xtab azon kalimalarini ichida takrorlab turmog`i va "Hayya alas-solah" deganda "La havla va la quvvata illa billahil `aliyyul azim" deyishi hamda "Hayya alal falah" deganda "Mashaallohu kana va malam yasha` lam yakun" deyishi mustahabdir; 2) ayollar azon aytmay o`qiyveradi; 3) takbirda "Hayya `alal falah" dan so`ng ikki marta "Qod qomatis-solah" deyiladi.

## JUMA NAMOZI

Juma namozi haftada bir marta, faqat juma kuni peshin namozi o`rnida o`qiladigan ulug` namozdir.

Juma namoziga borish quyidagi kishilarga vojibdir: 1. Bir yerda doimiy yashovchi. 2. Salomatligi yaxshi bo`lgan. 3. Ozod, ixtiyori o`zida bo`lgan. 4. Erkak kishi bo`lishi. 5. Balog`atga yetgan bo`lishi. 6. Ko`zlari va oyoqlari sog`lom bo`lgan.

Juma namozi ruxsat berilgan jome` masjidlarda o`qiladi. Ruxsat berilgan masjidlarda o`qilgan juma namozi bilan peshin soqit bo`ladi.

Juma namozini o`qish uchun eng kamida imomdan tashqari uch kishi (erkak namozxon) bo`lishi shart bo`lib, uch kishidan kam bo`lsa, peshin o`qiladi.

Juma namozining shartlaridan biri xutba o`qishdir. Xutba o`qishdan maqsad Xudoyi taolaga hamdu sano, payg`ambar (s.a.v.)ga durudu salavotlar aytish, mo``min erkak va ayollar haqqiga yaxshiliklar istab duo qilishdir. Shunday ekan, jumada xutba o`qish uchun imom xatibning olimu fozil, xushnafas, ovozi ta`sirli bo`lmog`i shart. Bundan tashqari imom xatib o`qigan xutbasining ma`nosini ham bilishi lozim. Agar ma`nosini bilmasa, o`qigan xutbasi durust bo`lmas, chunki o`zi tushunmay turib, boshqalarga qanday tushuntira oladi.

### **JUMA NAMOZINING FAZILATLARI**

Payg`ambar (s.a.v.) aytadilar:

*«Kimki juma namoziga avval borsa, go`yo bir tuya qurbonlik qilgandek bo`lur.*

*Kimki ikkinchi bo`lib juma namoziga borsa, go`yo bir sigir qurbonlik qilgandek bo`lur.*

*Kimki uchinchi bo`lib juma namoziga borsa, go`yo bir go`chqor qurbonlik qilgandek bo`lur.*

*Kimki juma namoziga to`rtinchi bo`lib borsa, go`yo tovuq hadya qilgandek bo`lur.*

*Kimki juma namoziga beshinchi bo`lib borsa, go`yo bir tuxum ehson qilgandek bo`lur».*

Rasul (s.a.v.) sovuq kunlari juma namozini ertaroq, qattiq issiq kunlari kechroq o`qir edilar.

Juma namozining o`qilish tartibi quyidagicha:

Avval azon aytiladi, so`ng to`rt rak`at sunnati namozi juma deb o`qiladi, so`ngra imom minbarga chiqib, qavmga qarab xutba o`qiydi. Xutbadan keyin "ikki rak`at farz, namozi juma" deb, so`ngra yana to`rt rak`at sunnati namozi juma deb, niyat qilib o`qiladi va o`tirib "Tashahhud", ikki salavot, duo o`qiladi, so`ngra o`ng va chap tomonga qarab salom beriladi. Shuning bilan namoz tugaydi, imom duo qiladi.

### **NIYAT:**

1. "Juma namozining 4 rak`at sunnatini o`qimoqqa niyat qildim, yuzimni qiblam bo`lmish "Ka`ba"ga qaratdim, xolis Alloh uchun, Allohu Akbar!"

2. "Juma namozining 2 rak`at farzini o`qimoqqa niyat qildim, yuzimni qiblam bo`lmish "Ka`ba"ga qaratdim, ergashdim ushbu hozir bo`lgan imomga, xolis Alloh uchun, Allohu Akbar!"

3. "Juma namozining 4 rak`at sunnatini o`qimoqqa niyat qildim, yuzimni qiblam bo`lmish "Ka`ba"ga qaratdim, xolis Alloh uchun, Allohu Akbar!"

Har bir niyatdan so`ng sano o`qiladi.

Sano: Subhonakallohumma va bihamdika va taborakasmuka va ta`ala jadduka va la ilaha g`oyruk.

## **RAMAZON VA QURBON HAYITI NAMOZLARI**

Musulmonlarning bir yilda ikki hayit (ramazon va qurbon) bayrami bor. Ramazon (fitr) hayiti bir oy ro`za tutilib, shu munosabat bilan qilinadigan shodlik, xursandchilik bayramidir.

Fitir yoki Ro`za hayiti shavvol oyining birinchi kunida bo`ladi. Qurbon hayiti zulhijja oyining o`ninchi kunida bo`ladi.

Bu ikki kunni musulmonlar xursandchilik bilan bayram qilishining boisi fuqarolarga sadaqa-ehson tarqatib, ixlos birla tavba-istig`for aytsa, gunohlari kechiriladigan kundir. Shuning uchun hayit kuni kishilar bir-birlari bilan "Hayitingiz muborak bo`lsin", deya salomlashadilar. Hayit kuni hayit namozidan oldin nafl namozi o`qimoq makruhdir.

Juma namozini o`qish kimlarga vojib qilingan bo`lsa, ikki hayit namoziga borish ham shu kishilarga vojib qilingan.

Hayit namozi uchun jumaning oltita sharti belgilangan:

1. Balog`atga yetgan erkak kishi bo`lishi.
2. Ixtiyori o`zida ozod kishi bo`lishi.
3. Sog`lom kishi bo`lishi.
4. Muqim (shu yerda yashaydigan) kishi bo`lishi.
5. Ko`zi ko`radigan sog`lom bo`lishi.
6. Oyoqlari yurishga yaraydigan bo`lishi.

**Quyidagi kishilarga hayit namoziga borish vojib emas:**

1. Xotin-qizlarga.
2. Balog`atga yetmagan yosh bolalarga.
3. Ozod bo`lmagan, ya`ni ixtiyori o`zida bo`lmaganlarga.
4. Bemorlarga.
5. Ko`zi ojiz kishilarga.
6. Yura olmaydigan kishilarga.
7. Musofirlarga.

Bular uzrli kishilar hisoblanadi.

Hayit namozlarini ado etish shartlari:

1. Shahardagi masjid.
2. Ruksat berilgan jome` masjid bo`lishi.
3. Hammaga kirish ruksati bo`lishi.
4. Jamoat bo`lish uchun imomdan tashqari balog`atga yetgan uch nafar erkak kishi bo`lishi.
5. Namoz belgilangan vaqtda o`qilishi.

Hayit namozining vaqti quyosh chiqib, ikki-uch gaz ko`tarilgandan to peshin vaqti kirgunga qadardir.

Uzrli sabablar bilan ramazon (fitr) hayiti namozini faqat bir kunga kechiktirib o`qisa bo`ladi, lekin qurbon hayiti namozini uch kungacha kechiktirib o`qisa bo`ladi.

## **RAMAZON HAYITI NAMOZI**

Bu hayit namozi ikki rak`atdan iborat.

Ramazon hayiti namozi boshlanishidan oldin muazzin yoki boshqa bir kishi takbir-iqomat o`miga balandroq joyga chiqib, bir necha marta "As-solatu" deb qichqirib, kishilarni namozga chaqiradi.

Hayit kuni sadaqai fitr berish vojib bo`lgan kishilar hayit namozi boshlanmasdan avval berishlari avlo. Hayit namozi vaqti bo`lgach, hamma namozxonlar safga turadilar va imom boshchiligida namozning birinchi rak`atini o`qishga niyat qilishdan boshlaydilar.

Niyat: "Ikki rak`atli ramazon hayiti namozini o`qimoqqa niyat qildim, yuzimni qiblam bo`lmish muqaddas "Ka`ba"ga qaratib, ushbu imomga ergashdim, xolis Alloh uchun, Allohu Akbar!" deb, takbiri tahrima aytganlaridan so`ng, qo`llarini bog`lab turib, sano o`qiydilar.

Sano o`qib bo`lingach, imom va qavm uch marotaba "Allohu Akbar!" deb takbir aytadi. Har takbir aytganda qo`llarini ko`tarib, bosh barmoqlarini quloqlari yumshoqlariga tekkizib, yonlari-ga tushiradilar va oxirgi tushirganda qo`llarini bog`lab, qavm indamasdan imomga quloq solib turadi, imom esa ichida "A`uzu billahi minash shaytonir rojim. Bismillahir rohmanir rohim" deb aytib bo`lgach, baland ovoz bilan surai "Fotiha"ni o`qiydi.

1 - "Fotiha" surasi .

2 - Zam sura.

So`ngra, "Allohu Akbar!" deb takbir aytib, birinchi ruku`ga boriladi, imomga ergashib, qavm ham ruku`ga boradi. Odatdagi-dek, ruku`da imom va qavm ichida uch marotaba "subhana robbiyal azim", deb takbir aytib bo`lgach, "Samiallohu liman hamidah" "tasmi`"ini qomatlarini tik bo`lguncha aytib tugatib, so`ng



qavm "Robbana lakal hamd" – "tahmid"ni aytadilar. Imom yana baland ovoz bilan "Allohu Akbar!" deb takbir aytib, sajdaga borgancha tugatib, imomga ergashib, birgalikda birinchi sajdaga boradilar. Sajdada odatdagidek uch marotaba ichlarida "subhona robbiyal a`la", "Allohu Akbar!" deb, boshlarini ko`taradilar va chap oyoqlari ustiga "la ilaha illalloh" deganchalik muddat o`tirib, yana "Allohu Akbar!" deb, ikkinchi sajdaga boradilar. Sajdada odatdagidek uch marotaba "Subhona robbiyal a`la" deb, yana "Allohu Akbar!" deb, sajdadan boshlarini ko`tarib, o`tirmasdan ikkinchi rak`atni o`qish uchun "qiyom"ga tik turadilar.

Ikkinchi rak`at: ikkinchi rak`atda niyat qilinmaydi va sano o`qilmaydi, chunki birinchi rak`atda ikki rak`atli ramazon hayiti namozini o`qimoqqa, deb niyat qilingan, sano o`qilgan. Shuning uchun ikkinchi rak`atni "tasmiya" bilan surai "Fotiha"dan boshlab o`qiladi.

1 - "Fotiha" surasi. 2 - Zam sura.

Sura o`qilib bo`lgandan so`ng, imom ruku`ga bormasdan ilgari avvalgi rak`atdagidek yana bosh barmoqni quloq yumshoqlariga yetkazib, uch marotaba takbir aytadilar, uch takbir tugagandan so`ng, yana "Allohu Akbar!" deya ruku`ga boradilar. Ruku`da odatdagidek imom va qavm uch marotaba "Subhona robbiyal azim" deb "ruku` tasbehi"ni aytib bo`lgach, "Samiallohu liman hamidah" "tasmi"ni aytib, qavm "Robbana lakal hamd" aytgach, imom yana baland ovoz bilan "Allohu Akbar!" deb takbir aytib, sajdagacha tugatib qavm bilan birgalikda sajdaga boradilar. Sajdada odatdagidek 3 marta "Subhana robbiyal a`la", "Allohu Akbar!" deb boshlarini sajdadan ko`taradilar va chap oyog`ining ustiga "La ilaha illalloh" deganchalik muddat o`tirib, yana "Allohu Akbar!" deb sajdaga boradilar. Sajdada odatdagidek uch marotaba "Subhana robbiyal a`la" deb "sajda tasbehi"ni aytib bo`lgach, yana "Allohu akbar!" deb, sajdadan boshlarini ko`tarib, chap oyog`ni yotqizib ustiga joylashib o`tirib olib, "tashahhud"ni va ikki salavatni, hamda duo o`qib o`ng va chap tomonga qarab "Assalomu alaykum va rahmatulloh" deb salom beradi.

Salomdan so`ng: "Allohumma antas salam va minkas salam, tabarokta ya zaljalali val ikrom", - deydi.

Salomdan so`ng xutba o`qiydi, o`qib bo`lgach, mehrobgga kelib o`tirib, duo qilinadi. Shuning bilan hayit namozi tugaydi.



## **QURBON HAYITI NAMOZI**

Qurbon hayiti namozi ham ramazon hayiti namoziga o`xshab ikki rak`atli vojib namozdir. Qurbon hayiti namozi zulhijja oyining o`ninchi kuni, ya`ni ramazon hayitidan qariyb yetmish kun keyin kelishi haqida yuqorida aytilgan edi.

Qurbon hayiti namozida ham ramazon hayiti namozidagidek muazzin yoki boshqa bir kishi baland joyga chiqib, bir necha marta "As-solatu" deb namozga chaqiradi.

Qurbon hayiti namozida ham ramazon hayiti namoziga o`xshab har rak`atda uch martadan olti marta "Allohu Akbar!" deb takbir aytiladi. Takbirning qachon va qanday aytilishi to`g`risida har rak`atda tushuncha berib borishga harakat qilamiz.

Qurbon hayiti namozining vaqti bo`lgach, hamma namozxonlar safga turadilar va imom boshchiligida Qurbon hayiti namozining birinchi rak`atini o`qishga niyat qilishdan boshlaydilar.

1-rak`at:

Niyat: Ikki rak`atli qurbon hayiti namozini o`qimoqqa niyat qildim, yuzimni qiblam bo`lmish "Ka`ba"ga qaratib, ushbu imomga ergashdim, xolis Alloh uchun, "Allohu Akbar!" deb takbir aytib, qo`llarini bog`lab, sano o`qiydilar.

1 - Sano.

2 - "Fotiha" surasi.

3 - Zam sura.

Zam sura o`qib bo`lgandan so`ng imom ruku`ga bormasdan ilgari bosh barmoqlarni quloq yumshoqlariga yetkazib, uch marta takbir aytiladi va uch takbirlarni aytib bo`lgach, yana "Allohu Akbar!" deb ruku`ga boriladi.

4 - Ruku`. 5 - Sajda.

"Sajda tasbehi"ni aytib bo`lgach, yana "Allohu Akbar!" deb sajdadan boshlarini ko`tarib, o`tirmasdan ikkinchi rak`atni o`qish uchun "Qiyom"ga tik turadilar.

2-rak`at: ikkinchi rak`atda niyat qilinmaydi va sano o`qilmaydi, ikki rak`atli qurbon hayit namozini o`qimoqqa deb niyat qilingan va sano o`qilgan. Shuning uchun 2-rak`at "Tasmiya" bilan surai "Fotiha"dan boshlab o`qiladi.

1 - "Fotiha" surasi. 2 - Zam sura.

Zam sura o`qib bo`lgandan so`ng imom ruku`ga bormasdan ilgari avvalgi rak`atdagidek yana bosh barmoqlarini quloq

yumshoqlariga yetkazib uch marta takbir aytadilar va takbir-larni aytib bo'lgach, yana "Allohu Akbar!" deb ruku'ga boriladi.

3 - Ruku'. 4 - Sajda. 5 - Tashahhud, ikki salavot va duo. So'ngra o'ng va chap yelkaga qarab: "Assalomu alaykum va rahmatulloh", deya salom beradi.

Salomdan so'nggi duo: "Allohumma antas salam va minkas salam, tabarokta ya zaljalali val ikrom".

Salom berib bo'lgach, imom minbarga chiqib xutba o'qiydi. Xutba o'qib bo'lgach, imom joyiga, ya'ni mehrob oldiga kelib o'tirib, duo qiladi.

**Eslatma:** Tashriq takbiri. Arafa kuni bomdod namozidan boshlab uchinchi tashriq kunining asr namozigacha har bir namozning farzini o'qib salom bergandan so'ng tashriq takbirini aytish vojibdir.

Tashriq takbiri ushбудur: "Allohu akbar, Allohu akbar, la ilaha illallohu vallohu akbar. Allohu akbar valillahil hamd".

Tashriq takbirini jamoat bo'lib o'qilgan va yakka o'qilgan namozlarda erkaklar ovozini chiqarib aytadi, ayollar ovozini chiqarmay aytadilar. Jami 23 takbir aytiladi.

## TAROVEH NAMOZI

Taroveh namozi barcha musulmonlar uchun o'qilishi lozim bo'lgan sunnat amaldir. Taroveh namozi ramazon oyida har kuni xufton namozidan keyin, vitr namozidan oldin o'qiladi (ba'zi manbalarga qaraganda vitr namozidan keyin ham o'qisa bo'lar ekan). Taroveh namozini ikki (rak'atdan) yoki to'rt rak'atdan o'qish mumkin, lekin ikki rak'atdan o'qish afzaldir. Taroveh namozini jamoat bo'lib, yoki yakka o'zi o'qisa ham bo'ladi, lekin jamoat bilan birga o'qimoq afzaldir. Taroveh namoziga takbir aytilmaydi. Taroveh namoziga quyidagicha niyat qilinadi:

Niyat: "Niyat qildim ikki rak'at (to'rt rak'at) taroveh namozini o'qimoqqa, ergashdim ushbu imomga, xolis Alloh uchun" deb niyat qilib bo'lgach, "Taavvuz" va "Tasmiya" bilan surai "Fotiha" va bir zam sura o'qiladi.

Agar taroveh namozi ikki rak'atdan qilib o'qilsa, unda har ikki rak'atdan so'ng, agar to'rt rak'atdan qilib o'qilsa, unda har to'rt rak'atdan so'ng "Tashahhud"ni salavotlari va duo bilan qo'shib o'qib, so'ngra salom beriladi. Taroveh namozi ikki rak'atli qilib o'qilsa, o'n salom bilan, agar to'rt rak'atdan qilib o'qilsa, besh martalik salom bilan ado qilina-

di. Har to'rt rak'at o'qilgandan keyin odatda uch marotabadan tasbeh aytiladi. Bizning diyorlda ushbu tasbeh aytilur:

"Subhana zil mulki val malakut. Subhana zil 'izzati val 'azamati, val qudrati, val kibriyai, val jabarut. Subhanal malikil hayyil laziy la yamut. Subbuhun quddusur robbul malaikati varruh. La ilaha illallohu nastag'firulloh. Nas alukal jannata va na'uzu bika minan nar".

Shunday qilib, ramazon oyida har kuni yigirma rak'atli taroveh namozi ado qilinadi. So'ng imomga ergashgan holda ovoz chiqarib, vitr namozi o'qiladi, lekin oxirgi uchinchi rak'atdagi "qunut" duosini hamma namozxonlar ichida o'qiydi.

Vitr namozini o'qib bo'lgach, "qa'da"ga o'tirib, "tashahhud"ni, ikki salavot va duoni o'qib bo'lgach, "Assalomu alaykum va rahmatulloh" deb o'ng va chap yelkalarga qarab salom beradi. So'ngra imom duo qiladi.

### **JANOZA NAMOZI**

Janoza namozi mayyitlar uchun o'qiladigan namozdir. Janoza namozi to'rt takbirli farzi kifoya namozdir. Janoza namozining shartlari sakkiztadir:

1. Tahoratli bo'lish.
2. Badanning pok bo'lishi.
3. Libosning pok bo'lishi.
4. Oyoq ostining pok bo'lishi.
5. Avratini bekitish.
6. Qiblaga qarab turish.
7. Niyat qilish.
8. Mayyit toza yuvilgan bo'lishi.

Mayyit janozasiga bir jamoa kishilar qatnashsa, boshqalardan soqit bo'ladi. Janoza namozi tik turgan holatda o'qiladi, ruku', sajda va qa'da qilinmaydi. Janoza namozini o'qish uchun shunday niyat qilinadi:

"Ushbu mayyit uchun to'rt takbirli janoza namozini o'qimoqni niyat qildim, ushbu imomga ergashdim, xolis Alloh uchun, Allohu Akbar!" deb qo'llarini ko'tarib, bosh barmoqlarini quloqlarining yumshoq joylariga tekkizib, qo'llarini bog'lab turib sano o'qiydilar. Sano o'qilgandan so'ng, qo'llari bog'liq ikkinchi marta takbir aytiladi. So'ngra ikki salavot o'qiladi va uchinchi takbir aytiladi. Keyin mayyitning balog'atga yetgan yoki yetmaganligiga qarab, janoza duosini o'qiydilar.

**Erkak va ayolga:** "Allohummag`fir lihayyina va mayyitina va shahidina va g`oibina va sag`irina va kabirina va zakarina va unsana. Allohumma man ahyaytahu minna faahiyihi alal Islam. Va man tavaffaytahu minna fatavaffahu alal iyman".

**Balog`atga yetmagan o`g`il bolalar uchun:** "Allohummaj`alhu lana farotav-vaj`alhu lana ajrov va zuxrav-vaj`alhu lana shafi`am-m`ishaffa`an".

**Balog`atga yetmagan qiz bolalar uchun:** "Allohummaj`alha lana farotav-vaj`alha lana ajrov-va zuxrov- vaj`alha lana shofi`atam-mushaffa`ah".

## NAFL NAMOZLARI

Nafl namozi har kuni besh mahal o`qiladigan namozlardan tashqari har xil maqsadlar uchun ixtiyoriy ravishda o`qiladigan qo`shimcha namozdir. Ulardan eng masxurlari quyidagilar:

1. Istisqo namozi. 2. Kusuf namozi. 3. Xusuf namozi. 4. Xavf namozi. 5. Istixora namozi. 6. Hojat namozi. 7. Shukur namozi. 8. Istig`for namozi. 9. Ishroq namozi. 10. Zuho namozi. 11. Avvobin namozi. 12. Tahajjud namozi. 13. Havl namozi. 14. Mandub namozi. 15. Tahiyvai masjid.

**1. Istisqo namozi** - Alloh taolodan ekinlar, chorvalar uchun yomg`ir tilab o`qiladigan ikki rak`atli nafl namozidir.

Istisqo namozini o`qish uchun shahar musulmonlari jam bo`lib, sahroga chiqadilar. Yosh bolalarni, hayvonlarni va kambag`allarni oqizlik holatida olib chiqadilar, faqirlarga sadaqa beradilar. Sahroga chiqqanlar tahoratli holda imomga qarab turadilar.

Imom xaloyiqqa va`z-nasihatlari qilib qavm a`zolarini gunohlaridan poklanish uchun tavba va istig`for aytishga taklif qiladi. So`ngra hammalari tavba va istig`for aytadilar.

Namozga quyidagicha niyat qilinadi: Ikki rak`at nafl namozini o`qimoqqa niyat qildim, xolis Alloh uchun, "Allohu Akbar!". So`ngra tashahhud o`qib, salavot aytib bo`lgach, ikki tomonga "Assalomu alaykum va rahmatulloh" deb, yomg`ir so`rab duo qiladi.

**2. Kusuf namozi:** Quyosh tutilib, nuri xiralashib qolganda imom jamoat bilan masjidda o`qiladigan nafl namozidir.

**3. Xusuf namozi:** Oy tutilib, nuri xiralashgan paytda o`qiladigan ikki rak`at nafl namozidir. Bu namozni har bir kishi o`z uyida yolg`iz o`qiydi.

**4. Xavf namozi:** qattiq yomg`ir yog`ib, sel kelib, suv toshqini bo`lganda yoki qattiq sovuq bo`lganda yoki yer silkinib zilzila bo`lganda yoki dushmandan ehtiyot bo`lish va shularga o`xshash xavfli voqealar sodir bo`lganda o`qiladigan ikki

rak`at nafl namozdir. Namozni o`qib bo`lgach, tavba va istig`for aytib, quyidagicha duo qilinadi:

"Yo rab, ushbu voqeaning zararidan saqlagil".

**5. Istixora namozi:** Bir ulug` ishni boshlashdan oldin bu qilmoqchi bo`lgan ishi xayrli bo`ladimi yoki xayrli bo`lmaydimi, deb shubhaga tushgan paytda Alloh taolodan boshlagan ishining xayrli bo`lishini tilab o`qiladigan ikki rak`at nafl namozidir. Namozdan so`ng to`liq ixlos bilan ushbu istixora duosini o`qiydi. Duodan so`ng ko`ngli qaysi tarafga ko`proq moyil bo`lsa, o`sha tarafni ixtiyor qiladi, yoki tahorat olib, ikki rak`at namoz o`qib, so`ng istixora duosini o`qib, tahoratli holicha qibla tarafga qarab, o`ng tomoni bilan yotishi kerak. Uyqusida xayrli tush ko`rsa, o`sha qasd qilgan ishini qiladi. Agar xayrsiz tush ko`rsa, u ishni qilmaydi.

**Istixora duosi ushбудir:** *"Allohumma inni astaxiyruka bi ilmika va astaqqdiruka bi-qudrotika va as'aluka min fazlikal azim. Fainnaka taqdiru vala aqdiru va ta'lamu vala a'lamu va anta 'allamul g'uyub. Allohumma in kunta ta'lamu anna hazal amro xoyrul-li fiy diniy va ma'ashiy va oqibati amriy ajilihi va aajilihi faqdirhu liy va yassirhu liy summa borikliy fiyhi va in kunta ta'lamu anna hazal amro sharrun li fiy diniy va ma'ashiy va oqibati amriy ajilihi va aajilihi fasrifhu anniy vasrifniy anhu va qoddirliya-l-xoyro aynama kuntu innaka ala kulli shay'in qodiyr".*

**6. Hojat namozi:** har bir kishining Alloh taolodan talab qiladigan hojati bo`lgan paytda maqsadining hosil bo`lmo`g`ini g`oyat ixlos bilan iltijo qilib o`qiydigan namozidir.

**7. Shukur namozi:** biror kishining maqsad qilib yurgan ishi hosil bo`lgan paytda yoki xayrli ishlari amalga oshganda yoki Allohning inoyati ila g`oyibdan turli ne`matlar yetganiga shukrona qilish uchun o`qiladigan ikki rak`atli nafl namozidir.

**8. Tavba va istig`for namozi:** biror kishi bilib-bilmay xatolikka yo`l qo`yib bir gunoh ish qilib qo`ysa va undan pushaymon bo`lsa, tavba qilib, istig`for aytib, sodir qilgan gunohining avf qilinishini Alloh taolodan so`rab o`qiladigan ikki rak`at nafl namozdir.

Tavba qilganidan keyin shu gunoh ishini takrorlamasa, Alloh taolo kechirishini va`da qilgan. Agar tavba qilib, tavba qilgan gunoh ishlarini yana takrorlasa, unda kechirmasligi mumkin.



Ikki rak`at tavba namozini o`qigandan keyin ushbu istig`for kalimasini o`qiydi: *"Astagfirulloh, astagfirulloh, astagfirulloha ta'ala min kulli zanbin aznabtahu amdan av xoto'an sirron av alaniyah. Va atubu ilayhi min-az zanbillaziy a'lamu va min-az zanbillaziy la a'lamu innaka anta 'allamul g'uyub"*. So`ng tavbamni qabul qilg`aysan, deb duo qiladi.

**9. Ishroq namozi:** Quyosh to`liq chiqib bo`lgandan keyin o`qiladigan nafl namozdir. Bu namozni 2, 4, 6 va hatto 8 rak`atdan qilib o`qish mumkin. Sakkiz rak`atdan oshirilmaydi.

**10. Zuho namozi:** Zuho (choshgoh) namozi ham quyosh biroz ko`tarilgandan so`ng o`qiladigan nafl namozidir. Zuho namozi 2, 4, 6 va 8 ham 12 rak`atdan o`qilishi mumkin, 12 rak`atdan oshirilmaydi.

**11. Avvobin namozi:** Shom namozidan keyin o`qiladigan namoz. Avvobin namozi 2, 4 yoki 6 rak`atdan o`qiladigan nafl namozidir.

**12. Tahajjud namozi:** kechasi yarim kechada uyqudan turib tong otguncha, ya`ni bomdod namozi vaqtigacha 2, 4 yoki 6, 8 rak`at o`qiladigan nafl namozidir. Albatta, uyqudan kechib o`qigan namozning ajri ko`p bo`lur.

**13. Havl namozi:** biror mo`min musulmon kishining va-foti kuni savobini o`sha mayyitga (marhumga) bag`ishlash uchun shom namozidan so`ng o`qiladigan ikki rak`at nafl namozidir. Bunda "Takosur" va "Val-`asri" suralarini o`qish maqsadga muvofiqdir.

**14. Mandub namozi:** asr va xuftondan ilgari hamda xuftondan keyin o`qiladigan to`rt rak`atli nafl namozidir.

**15. Tahiyvai masjid namozi:** Masjidga kirganda o`qiladigan ikki rak`atli nafl namozidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur`oni karim ma`nolarining tarjima va tafsiri. - T.: "Toshkent islom universiteti", 2006.

2. Shayx Abdulaziz Mansur. Musulmonchilikdan ilk saboqlar. - T.: "Cho`lpon", 1992.

3. Ahmad Hodiy Maqsudiy. Ibodati islomiya. - T.: "Kamalak", 1995.

4. "Muhimotul-muslimin". - T.: "Karimovlar" bosmaxonasi. 1332 h/y.



## MUNDARIJA

Namoz o`qish qoidalari .....	3
Tahorat farzlari .....	4
Tahorat sunnatlari .....	4
Tahorat mustahablari .....	4
Azon duosi .....	5
Salavot va duo .....	16
1. BOMDOD NAMOZI .....	16
2. PESHIN NAMOZI .....	20
3. ASR NAMOZI.....	25
4. SHOM NAMOZI .....	26
5. XUFTON NAMOZI .....	28
QISQA SURALAR .....	33
TAYAMMUM FARZ VA SUNNATLARI .....	36
G`USL .....	38
NAMOZ FARZ VA SUNNATLARI .....	39
ERKAK VA AYOLLAR NAMOZINING FARQLARI .....	47
ZAIF VA NOGIRON KISHILAR NAMOZI .....	48
QAZO NAMOZI .....	48
SAJDAI SAHV .....	49
MUSOFIR NAMOZI .....	50
JAMOAT NAMOZLARI .....	50
JUMA NAMOZI .....	52
JUMA NAMOZINING FAZILATLARI .....	53
RAMAZON VA QURBON HAYITI NAMOZLARI .....	54
TAROVEH NAMOZI.....	58
JANOZA NAMOZI .....	59
NAFL NAMOZLARI .....	60

# NAMOZ O'QISH QOIDALARI

"Toshkent islom universiteti"  
nashriyot-matbaa birlashmasi  
Toshkent - 2015

Noshir:

**A. Rahimov**

Muharrir:

**B. Eraliyev**

Musahhih:

**U. Insonboyeva**

Kompyuterda sahifalovchi:

**Z. Ulug'bekova**

Nashriyotning guvohnoma raqami AI № 224. 2012 yil, 16 noyabr.

Bosishga ruxsat etildi 27.03.2015. Bichimi 84x108<sup>1</sup>/<sub>32</sub>.

Ofset usulda bosildi. Shartli bosma tabog`i 3,36.

Nashr tabog`i 3,40 Adadi 8000. nusxa Buyurtma №26.

Bahosi shartnoma asosida.

«Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa  
birlashmasi bosmaxonasida chop etildi.  
100011, Toshkent. A. Qodiriy ko`chasi, 11.